

SUYAKLARNING CHIQISHI VA SINISHNING BELGILARI VA ULARNI MALHAM VA SURTMALAR YORDAMIDA DAVOLASH USULLARI HAQIDA (QOL,KAFT,BILAK,SON,TIZZA QOPQOG‘I MISOLODA)

Shaxriyev Zakariya Murodbek o‘g‘li

*Buxoro innovatsion Ta‘lim va Tibbiyot universiteti
Davolash ishi yo‘nalishi 1-kurs 5D23 guruh talabasi.*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada tibbiy muassasalarda qo‘l, kaft, bilak, son, tizza qopqog‘i suyaklarning chiqishi va sinishning belgilarini aniqlash va ularni malham va surtmalar yordamida davolash usullari haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek shifokor bemor bilan muloqot jarayonida qanday psixik yondashish kerakligi va o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi fikrlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Muloqot, bemor, qo‘l, kaft, bilak, son, tizza qopqog‘i, suyaklar chiqishi, parvarish.

АННОТАЦИЯ. В статье описаны методы выявления признаков вывихов и переломов костей кисти, ладони, запястья, бедра, коленной чашечки в медицинских учреждениях и их лечение с помощью мазей и растираний. Также освещены мысли о том, какой психологический подход следует использовать в процессе общения врача и пациента и его особенности.

Ключевые слова: Общение, пациент, рука, ладонь, запястье, бедро, коленная чашечка, костная шпора, уход.

ABSTRACT. This article describes the methods of identifying the signs of dislocations and fractures of the bones of the hand, palm, wrist, hip, and knee cap in medical institutions and their treatment with the help of ointments and rubs. Also, the thoughts about what kind of psychological approach should be taken in the process of communication between the doctor and the patient and its features are highlighted.

Key words: Communication, patient, hand, palm, wrist, hip, knee cap, bone spur, care.

Kirish.

Chiqish suyakning o‘z joyidan va tabiiy vaziyatidan bir tomonga qarab butunlay chiqishidir va bu xolatni ushlab sezib bilib olish kerak bo‘ladi, agar bo‘g‘imga yetgan aziyat suyakni qo‘zg‘atmasa lekin uning atrofi ezilgan bo‘lsa buni pay chozilishi deyiladi lekin bog‘im chiqish darajasiga borib yetmasa ham chiqish oson bo‘lib qoladi. Ko‘pincha bu xolat bilak va sonda yuz beradi chunki bazi kishilarnig bog‘im suyaglarinig chuqurchasi yuza bo‘lib chuqurchalarga kirib turadigan suyak boshchalari yaxshi kirmay qoladi va bu suyak boshchalari bilan o‘rab turgan muskulli iplarni

bo'shashtirib ularni toraytirishga olib keladi va bu vaziyatda bemorlarda suyak boshchasi kirib turgan chuqurchasidan chiqish holatlariga ko'p duch kejamiz.

Bazi bo'g'imalarning joydan chiqishi oson bazilarniki esa qiyin, va bazilarniki o'rtacha bo'ladi. Chiqishi oson bo'lgan bo'g'imlar; son, tizza bo'g'imlaridir. Chunki ularning bog'lov bo'g'imlari va muskullari yumshoq va silliq bo'ladi shuning uchun ularni ushlab turuvchi tizza kosasi vazifani bajaradi. Oriq kishilarning yelka bo'g'imi va tizza bo'g'imining chiqishi semiz odamlarga qaraganda osonroq va ko'p uchraydi, ayniqsa yosh bolalarda ko'proq uchraydi chunki ularning suyaklarda o'suvchi qismi suyagdan emas balki to'g'aylardan tashkil topgan o'sha uchun yosh bolalarda ko'proq vaqt ajratish maqsadga muvofiqdir.

Chiqishi qiyin bo'lgan bo'g'imlarga barmoq bo'g'imlari misol bo'ladi, chunki barmoq bo'g'imlari deyarli chiqmaydi balki ular sinasini sinadiki ammo chiqmaydi, tirsak bo'g'imi ham shunday, shuning uchun ularni joyiga qaytarib kirgizish ham qiyin ishdir.

Chiqish va qaytishda o'rtacha bo'g'imlarga kelganda bunga son boshi bo'g'imi misol bo'ladi goxo chiqishi qiyin bo'lgan bo'g'im biror sababga ko'ra osonlik bilan chiqadi va uni joyiga qaytarish ham osonroq bo'ladi. Masalan; son boshi chuqurchasi rutubat bilan tursa, bo'g'im chiqishi osonlashadi shu bilan birga uni joyiga qaytib kirdizish ham oson bo'ladi. Irqunnos kasaligiga uchragan kishilarda shunday bo'lib, son boshi bo'g'im dam-badam chiqib turadi. Ozgina urinish bilan joyga qaytadi so'ngra tog'ay chiqib yana qaytadi bunday bo'g'imni bog'lashga muxtoj bo'lib boshqa narsa bilan tuzatib bo'lmaydi. Agar suyak chiqqanda suyakni suyakka biriktirib turgan mayda paylarning uchi ham uzilsa unday chiqishning joyga qatrarish juda qiyin bo'ladi. Bunday chiqish son boshi bo'g'imida so'ng yelka boshida va oyoq topiklarida ko'proq uchraydi. Agar chiqqan bo'g'im joyga qaytarilmasa, tuzatilmagan sinishdan ko'ra yomonroq hisoblanadi.

Suyak chiqqanligining umumiy belgilari:

Bo'g'imda odaddagidan tashqari puchayish va chuqur tushish yuz beradi. Masalan yelka suyagi va boqsa bo'g'imi chiqqanda bu holat ochiq oydin ko'rinib turadi, bo'yin bo'g'imi chiqqanda esa juda aniq ko'rinadi.

Solishtirib ko'rish buni yaxshi aniqlab beruvchi usullardir. Zararlangan bo'g'imni boshqa kishining bo'g'imi bilan emas balki osha bemorning boshqa shu kabi sog'lom bo'g'imi bilan solishtirib ko'riladi. Kasallangan bo'g'im agar harakat qilolmasa batamon chiqqanligiga xulosa qilinadi. Agar u turli tumanga qarab harakat qilib ilgari otadigan joylarga yeta olsa unda chiqishga aloqador kasallik bo'lmaydi.

Demak suyaklarning va bo'gimlarning chiqishi va suyaklarning sinishida ularni qayta o'z holiga kelishi ancha vaqt ketar ekan. Ammo bu vaqt ichida bemorning jaroxatini tuzalishiga bo'lgan vaqtini kamaytirish yoki ko'p vaqt ketganligi uchun

suyakning buzulishini oldinini olish maqsadda malhamlari yoki surtmalar va dorilardan foydalanish kerak bo'ladi.

Bu surtmalarning bazilari sishga to'sqinlik qilib qichishni to'xtatish uchun, bazilari esa qadoqni maxkam va kuchli qilish uchun, bazilari kattalashib ketgan qadoqni mutadillashtirish uchun, bazilari singan suyak tuzalgandan keyin bo'g'imda paydo bo'ladigan qattiqlikni ketkazish uchun, bazilari esa bo'g'implarda bo'shish yoki bo'lsa uni yo'qotish uchun ishlatiladi.

Suyak qadog'ini maxkamlash uchun ishlatiladigan surtmalar. Burishtiruvchi latif dorilarni quyish va shularga o'xshash quyuq surtmalarni bog'lash bu jixatdan foydalidir. Masalan: mirta qaynatmasi, agar yog'larga extiyoj bo'lsa mirtaning yog'i, xina yog'i, mirta bargi va donining suvi bilan tayorlangan surtma, misr akatsiyasi daraxtinig qaynatmasi, qayrag'och ildizi va bargaining qatnatmasi esa bu keyingisi qadoqni bituruvchisi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda quyuq surtma juda yaxshi natija beradi. Xurmo guluning qobig'i xam yaxshidir. Biz hech qachon shuni unutmashligimiz kerakki jaroxat olgan bemorni qayta tiklash va tuzatish uchun unga eng kerakli narsa bu vaqt, sabr, va oziq ovqatlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. T.O. Xudoynazarovich, E. A., & Ulug'bekovich, X. O. (2023). BEMORLARDAGI JARROHLIK OPERATSIYASIDAN OLDINGI VA KEYINGI PSIXOEMOTSIONAL HOLATLAR. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 18(1), 89-92shkent - 2003 y.
2. I.S. Razikova, M.A.Mirpayzieva, Z.S.Umarova "MULOQOT KO`NIKMALARI VA HAMSHIRANING SHAHSIY XUSUSIYATLARI" o'quv qo'llanma.
3. Gadoyev, I. N. (2022). TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'AT FANLARINI O'QITISH METODIKASI. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(6), 203-210.
4. Niyazovish, G. I. (2021). WAYS OF USE OF MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FINE ARTS CLASSES AND THROUGH THE IMPROVEMENT OF IDEAS OF NATIONAL INDEPENDENCE TO STUDENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 234-237.
5. Niyozovich, G. I. (2023). IQTISOSLASHGAN MADANIYAT MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA MANZARA JANIRINI O'QITISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Research and Publication*, 1(1), 4-9.